

TURLI YOSHDAGI QORAKO'L QO'ZILARNING TIRIK VAZN VA EKSTERER KO'RSATKICHLARI

Sultonov Yusupbek Fayzullaevich - Q.x.f.b.f.d(PhD) v.v.b. dotsent
Amonov Rasul Chorshambi o'g'li - Mustaqil izlanuvchi (PhD),
Ja'hanbaev Timur Baxadur uli - bakalavr
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli yoshdagi qorako'l qozilarining tirik vazni va eksterer ko'rsatkichlari o'rganilgan hamda ju'n maqsuldorligini oshirish yo'llari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qo'zilarning tug'ilgan davridagi tirik vazni, tirik vazn va uning dinamikasi, tirik vazn ko'rsatkichlari.

Qo'zilarning tug'ilgan davridagi tirik vazni bilan ulardan olinadigan teri sathi o'rtasida musbat korelatsion bog'liqlik bor. Tug'ilgan vaqtdagi tirik vazn qancha katta bo'lsa, olinadigan teri sathi ham shuncha keng bo'ladi. olinadigan terining sifatiga va bahosiga uning sath o'lchami ham bevosita ta'sir qiladi.

Shu nuqtai nazardan tajribadagi qo'ylardan olingan avlodlarda tirik vazn, eksterer o'lchamlari o'rganildi.

Tirik vazn va uning dinamikasi. Muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadigan ushbu ko'rsatkich qo'ylar muhsuldorligining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tirik vaznning talab darajasida yoki undan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq. Ushbu sharoitida barcha xususiyatlar maksimal namoyon bo'ladi. Qorako'l qo'ylari tirik vazn ko'rsatkichi bo'yicha uncha yirik emas, lekin ulardan olinadigan avlodlar tug'ilgan paytida onasining tirik vazniga nisbatan boshqa qo'y zotlariga qaraganda ko'proq salmoqni tashkil etadi (10-13%) va bu xususiyat ularning ekstremal cho'l sharoitida yuqori darajadagi chidamlilikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

1-jadval

Avlodlarning tug'ilgan vaqtidagi tirik vazni

Avlodlar	n	Tirik vazn, kg			
		Tug'ilganda, kg		Tug'ilganda, %	
		$X \pm S_x$		C_v	
		Kumushsimon	Olmos	Kumushsimon	Olmos
Yarimdoira qalamgul	50	3,9 ±0,04	4,0 ±0,05	10,05	13,3
Qovurg'asimon	35	4,0±0,03 ^x	3,9±0,007 ^x	10,7	9,77
Yassi	35	3,8±0,12 ^x	3,9±0,09	12,4	12,2
O'siq gul	25	4,1±0,01	4,2±0,06 ^x	11,6	15,5

X-P<0,05

Tadqiqotlarda turli guruh qo'ylardan olingan avlodlarning tug'ilgandagi tirik vazni gul tiplari bo'yicha urganildi. (1-jadval).

Ko'pchilik olib borilgan tadqiqotlarda boshqa gul tipidagi qorako'l qo'zilariga nisbatan yassi gul tipli qo'zilar tirik vaznining biroz pastligi bilan ajralib turishi aniqlangan.

Bajarilgan tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, tirik vazn o'siqgul tipidagi qo'zilarida boshqa gul tiplariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin ($4,1 \pm 0,01$; $4,2 \pm 0,06^x$). Rangbaranglik bo'yicha esa olmos rangbarangligida eng yuqori o'rtacha tirik vazn ($4,2 \pm 0,06^x$; 15,6%) qayd etilgan. Eng kichik tirik vazn ko'rsatkichi kumushsimon rangbarangligida uchrab, ($3,8 \pm 0,12^x$) olmos rang o'siq gul tipiga nisbatan 0,4 kg yoki 3,2 % past natija ko'rsatgan.

Tadqiqot davomida aniqlangan holatlarni tirik vazn ko'rsatkichlarini ma'lum darajada gul tipiga va ularning rangbaranglik xususiyatlariga bog'liq bo'lishi bilan izohlash mumkin.

XULOSALAR

1. Bajarilgan tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, tirik vazn o'siqgul tipidagi qo'zilarida boshqa gul tiplariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin ($4,1 \pm 0,01$; $4,2 \pm 0,06^x$). Rangbaranglik bo'yicha esa olmos rangbarangligida eng yuqori o'rtacha tirik vazn ($4,2 \pm 0,06^x$; 15,6%) qayd etilgan. Eng kichik tirik vazn ko'rsatkichi kumushsimon rangbarangligida uchrab, ($3,8 \pm 0,12^x$) olmos rang o'siq gul tipiga nisbatan 0,4 kg yoki 3,2 % past natija ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turganbaev R.U., Nurabullaeva G. Qoraqalpoq "durdonasi". // Agro ilm. 2018 yil. №4. 56-57 betlar.

2. Turganbaev R.U. va boshqalar. Qoraqalpoq zot tipidagi sur rangli qorako'l qo'ylarining mahsuldorlik xususiyatlari. Chorvachilik va naslchilik ishi. 2018 yil. №1. 25-27 betlar.

3. Tursunov X. Sur qo'zilarida rangbaranglikning ifodalanishi va uni seleksiyalash xususiyatlari. Nomzodlik diss. avtoreferati, Tashkent, 2007 19b.

4. Usanov R. Qarnabcho'l sharoitida sur korako'l qo'ylarini urchitish. Cho'l-yaylov chorvachiligining ekologik asoslangan texnologiyalari. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari. Samarqand. 2009 yil 20-21 avgust. 121-126 betlar.

5. Usmonkulova Z., Hakimov U. Jun qoplami-ko'ylarning ximoya vositasi. // Cho'l chorvachiligi va ekologiyasining dolzarb muammolari mavzusidagi yosh olim va mutaxassislarining ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2001, 20-23 betlar.

6. Xasilbekov A.Ya., To'xtarov R.M., Qodirov F. Junga birlamchi ishlov berish va toza jun tayyorlash. // Zooveterinariya. 2015 yil. №12. 31-32 b.